

Paxtakor tumqin XTMFMT va
TEB ga qarashli 5- umumiy o`rta
ta`lim maktabi
Tasviriy san`at fani o`qituvchisi
Samatov Botirning
6-sinf uchun
Rangtasvirda sujetil kartina
yaratish mavzusi yuzsidan
1-soatlik

DARS ISHLANMASI.

6-sinf

Mavzu: Rangtasvirda sujetli kartina yaratish.

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy: rangtasvirning turli janrlarda san'at asarlarining yaratilish texnikasini o'rganish va kompozitsiyasini tahlil eta olishga o'rgatish.

Tarbiyaviy: rassomlar yaratgan sujetli kartinalarda tasvirlangan holatni ma'naviyatimizdan kelib chiqqan holda kora olishni, ma'nosini anglashni o'quvchilar ongiga singdirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarga hayot davomida korgan narsalari va hodisalarni jonli, hayotiy kartinalar orqali ifodalashga o'rgatish.


Dars uslubi: "Minusovka", "Aqliy hujum" "Klaster".

Dars turi: Yangi bilimlarni shakllantiruvchi. intertiiiOL

• Darsning jihozlanishi:

O'qituvchi uchun: San'at asarlaridan namunalar. slaydlar. kadaskop, o'qituvchi tayyorlagan "Choyga" asariga vanativ holatlarini tasvirlashga old ishlangan rasmlar,

O'quvchilar uchun: Rasm daftar. suv bo'yog'i, suv idish, qalamlar. palitra. oddiy daftar.




1-rasm



2-rasm



3-rasm



4-rasm

Darsni rejalashtirish:

- I. Tashkiliy qism.
- II. O'tgan darsni mustahkamlash.
- III. Yangi dars bayoni.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darsni yakunlash

Darsning borishi.

I. Tashkiliy qisim.

O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarligini ko'rib chiqish.

II. O'tilgan darsni mustahkamlash.

O'tilgan "Tarixiy yoki mifologik mavzularda portret ishlash" mavzusini takrorlab, uyga vazifalarni tekshirish. O'quvchilarning namunali chizilgan rasmlarini ko'rsatib, ularning yutuq-kamchiliklarini tushintirib berib baholash.

III. Yangi dars bayoni.

Yangi dars. "**Rangtasvirda sujetli kartina yaratish**" mavzusida suhbat. Darsning maqsadi turli rangtasvir asarlarining yaratilish texnikasini o'rganish va san'at asarlarining kompozitsiyasini tahlil etish.

O'qituvchi: O'quvchilarga birinchi savol beradi:

Tasviriy san'at turlarini bilasizmi?

O'quvchilar javob beradi: Tasviriy san'at turlari uchta:

Rangtasvir.

Grafika.

Haykaltaroshlik.

O'quvchilarning javoblari berilganda kadaskop orqali tasviriy san'at turlariga oid rasmlar ko'rsatib boriladi, o'qituvchi tomonidan javoblar to'ldiriladi va rasmlarga izoh beriladi:

O'qituvchi: O'quvchilarga ikkinchi savol beriladi

Rang tasvirning qanday janrlarini bilasiz?

Javob: O'qituvchi: 1. Portret. 2. Naturmort. 3. Manzara. 4. Tarixiy. 5. Maishiy. 6. Morenistik. 7. Animalistik. 8. Batal. 9. Afsonaviy, mifologik.

Bu savolga javob berishda "Klaster" usuli o'ynaladi. Sinf doskasiga to'qqizta aylana chiziladi va bu aylanalarni markazdagi o'ninchi aylanaga to'g'ri chiziqli orqali birlashtiriladi. Markazdagi aylanaga "Rangtasvir janrlari" deb yoziladi. O'quvchilar atrofdagi aylanalarga rangtasvir janrlari nomlarini yozadilar.

Savol-javob jarayonida o'qituvchi kadaskop orqali rangtasvir janrlariga mansub rasmlarni ko'rsatib boradi. O'qituvchi tomonidan javoblar umumlashtiriladi va rasmlar badiiy talqin etiladi.

O'qituvchi: Hurmatli O'quvchilar, mana shu rangtasvir janrlariga oid mavzularda musawirlar o'zlarining san'at asarlarini yaratadilar.

O'qituvchi: O'quvchilarga uchinchi savol beriladi:

Siz qaysi musavvirlarni taniysiz va ularning asarlaridan namunalar bilasiz?

Javob: R.Ahmedov, O.Qozoqov, Akmal Nur, A.Abdullayev, A.Mirzayev va boshqalar.

O'qituvchi O'quvchilarning javoblarini to'ldirib izoh beradi va faol O'quvchilar rag'batlantiriladi.

Bugungi darsda "Musawirlar qanday qilib sujetli kartina yaratadilar?" savoliga javob olamiz.

O'qituvchi: Hurmatli O'quvchilar, bugungi darsda biz O'zbekistonimizning yetuk musavvirlaridan biri Zokir Inog'omovning "Choyga" kartinasining yaratilish va kompozitsiyasini tahlil etamiz.

Kadaskop orqali "Choyga" asari ko'rsatiladi.


O'qituvchi: O'quvchilarga to'rtinchi savolni beradi:

"Choyga" asarida kimlarni va nimalarni ko'ryapsiz?

O'quvchilar javobi: "Choyga" asarida O'zbekistonimizning musaffo osmoni, issiq yoz fasli, keng dalalardagi pichan g'aramlari tasvirlangan.

O'qituvchi: Yoz faslini qayerdan bilamiz?

O'quvchilar javobi: O'tlarning, somon g'aramlarining sariq ranglaridan, manzaraning issiq ranglar



koloritidan bilamiz. Asarning chap tamonida ayolning qo'l ko'tarib uzoqdagi odamlarni chaqirayotgani tasvirlangan. O'ng tamonda uzoqda odamlar mashinalarga pichan ortishmoqda.

Ayolning oldida qumg'onda choy va tugun turibdi, pichan g'arami soyasida ikkita tarvuz tasvirlangan.

Sinf doskasiga "Choyga" asarining o'qituvchi tomonidan chizilgan tabiat manzarasi joylashtiriladi (5-rasm). Insonlar qiyofasi tasvirlanmagan pichanzor tasvirini o'quvchilar alohida e'tibor bilan eslab qolishlari kerak bo'ladi. Sababi asar kompozitsiyasining mavzuli sujeti bindan keyin dinamik ravishda, bosqichma-bosqich rasmlar variantlari orqali yoritib boriladi. Voqealar jarayonining navbatma-navbat kompozitsiyasining ochib berilishi, o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarining, badiiy tahlil qilish qobiliyatlarini va ijodiy tafakkurini shakllantirishga katta yordam beradi. Manzaraga ayolning harakatsiz chizilgan 1-rasmi joylashtiriladi (bunda 6-rasm ko'rinishi hosil bo'ladi)

O'qituvchi: O'quvchilardan rasmga izoh berishlari so'raladi.

O'quvchilar: Ayol harakatsiz turganligini tasdiqlashadi.

O'qituvchi: O'quvchilardan uzoqdagi odamni qanday chaqiramiz? deb so'raydi.

O'quvchilar: Qattiq, baqirib chaqiramiz. Chaqirgan odam eshitmasa, qo'lni lab oldiga olib kelib, karnay qilib chaqiriladi, javoblarini berishadi. O'quvchilar bularning hammasini harakatda ko'rsatadilar, O'quvchilar javob berishayotganda manzaraga ayolning harakatsiz tasviri olinib, o'rniga qo'llarini lab oldiga olib kelib chaqirayotgan holati (2-rasm) joylashtiriladi (bunda 7-rasm ko'rinishi hosil bo'ladi).

O'qituvchi: Uzoqdagi odam bizga qaragandan so'ng yana qanday chaqiriladi?

O'quvchilar javobi: O'quvchilar qo'l silkib chaqirishini aytishadi. O'quvchi qo'llarini harakat qilib ko'rsaladi. Bu paytda manzaraga ayolning qo'llari lab oldida turgan rasmi olinib, o'rniga qo'l ko'tarib turgan ayol tasviri (3-rasm) joylashtiriladi (bunda 8-rasm ko'rinishi hosil bo'ladi).

O'qituvchi: Ayol uzoqdagi odamlarni nima uchun chaqirmoqda? savoli beriladi.

O'quvchilar javobi: Tushlikka, choyga chaqirmoqda. Ayolning oldiga qumg'on va tugun, pichan g'arami soyasiga tarvuzlar (4-rasm) joylashtiriladi (bunda 9-rasm ko'rinishi hosil bo'ladi).

O'quvchilarga "Choyga" asari mana shunday jonli tasvirlangani aytib o'tiladi. Asarda kunning issiq payti tasvirlangani, ayolning choyga chaqirishidan tushlik payti bo'lganini bilish mumkin. Voqea ayni yoz chillasida bo'lgani ma'lum bo'ladi.

O'qituvchi: Hurmatli o'quvchilar. Rassomlar har bir asar, kartina ustida mana shunday mashaqqatli mehnat qilishadi va asarlarga jon ato etishadi. Asar sujetini ochib berish uchun yuzlab xomaki rasmlar va eskizlar chizishadi. Kompozitsiya mavzusi kartina yuzasida bosqichma-bosqich ishlab tugallanadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

O'qituvchi: Qani, bolalar, bugun sizlar bilan qanday mavzuda suhbatlashdik?

O'quvchilar javobi: Musawirlarning kartinalarni yaratishjaryonlari haqida suhbatlashdik.

O'qituvchi: Sizlar ham sujetli kartina yarata olasizmi?

O'quvchilar javobi: Sujetli kartina yaratishni, uni tahlil qilishni o'rgandik va biz ham sujetli kartina yaratishga harakat qilamiz.

O'qituvchi: Unda mustaqil razishda "O'lkamizda kuz" mavzusida o'zingiz sujetli kartina kompozitsiyasming eskizini ishlab kelasizlar. Bunda kuzgi ishlar, tabiat o'zgarishi hodisalarini anglashga harakat qilib rasm ishlang. Birinchi plan, ikkinchi planga, perspektivaga e'tibor qiling. V. Darsga yakun yasash, uyga vazifa berish:

O'quvchilarga yaratayotgan asarlarini davom ettirib kelish va sujetli kartinalardan namunalar olib kelish vazifasi beriladi.



5-rasm



6-rasm



7-rasm



8-rasm



9-rasm